**ShARTNOMA-sonli** 17.

**(tovarlar yetkazib berish haqida)**

"4". 02. 2022 yil

"Farm Dunyo" МЧЖ bundan buyon "Ta'minotchi" deb ataluvchi, rahbari A.Choriev. Nizom asosida ish yurituvchi bir tomondan va Denov tuman "Tibbiyot birlashmasi", bundan buyon "Buyurtmachi" deb ataluvchi, rahbari I.G.YusupovNizom asosida ish yurituvchi ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida shartnoma tuzadilar:

**1. Shartnoma predmeti.**

1.1."Ta'minotchi", "Buyurtmachi" extiyoji uchun lozim bo'lgan Dori darmon mahsulotlari yetkazib beradi, "Buyurtmachi" esa tovar-moddiy boyliklarni qabul qilib, mazkur shartnoma shartlari asosida to'lovlarni amalga oshiradi.

**2.Tovar moddiy boylikning narxi va umumiy qiymati.**

2.1.Tovar moddiy boylikning qiymati Respublikamiz milliy valyutasi so'mda belgilanadi.

| № | Ish (xizmat)lar nomi | Ulchov birligi | Mik-dori | Narxi | QQS | Summasi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Пирацитам 20% 5мл | уп | 300 | 5 800 | 0 | 1 740 000 |
| 2 | Декстраза (Глюкоза) | уп | 500 | 4 500 | 0 | 2 250 000 |
| 3 | Гепарин | уп | 1000 | 40 250 | 0 | 40 250 000 |
| 4 | Метоклопрамид | уп | 100 | 5 650 | 0 | 565 000 |
| 5 | Строфантин (Амброксол) | уп | 100 | 3 900 | 0 | 390 000 |
| 6 | Никитамид (Кавинтон) | уп | 50 | 55 800 | 0 | 2 790 000 |
| 7 | Фултиказон пропоионат (Контримакс ) | уп | 20 | 225 000 | 0 | 4 500 000 |
| 8 | Сефтироксан (Цефепим) | уп | 10000 | 3 950 | 0 | 39 500 000 |
| 9 | Метамизол натрий (Аналгин) | уп | 1000 | 2 550 | 0 | 2 550 000 |
| 10 | ЦЕРЕБРОЛИЗИН | уп | 20 | 186 000 | 0 | 3 720 000 |
| 11 | СПИРТ ЭТИЛОВЫЙ МЕДИЦИНСКИЙ 70% (Ethanol) | уп | 5000 | 1 400 | 0 | 7 000 000 |
| | **Jami** | x | | | | 105 255 000 |

2.2 Shartnoma umumiy qiymati 105 255 000 sum lik jami 18090 ( Un sakkiz ming tuqson) dona Dori darmon mahsulotlarini tashkil qiladi.

2.3“Ta’minotchi” tovar moddiy boyliklarning qiymati narx oshganligi **natijasida o‘zgarganda, “Buyurtmachi”ga oldindan xabardor qilib, tovar moddiy** boylikning o‘zgargan narxini asoslangan holda sotadi.

2.4 “Buyurtmachi” o‘zgargan narxlar asosida qo‘shimcha to‘lovlarni budjetda ko‘rsatilgan (belgilangan miqdor) doirasida amalga oshiradi.

**3. To‘lov shartlari.**

3.1“Buyurtmachi” tovar moddiy boyliklar to‘liq qiymatining oldindan 30% foizi 31 576 500 miqdorda 3 bank ish kunida “Ta’minotchi”ning maxsus hisob raqamiga pul o‘tkazish yo‘li bilan to‘lovni amalga oshiradi.

3.2 Tovar moddiy boyliklar to‘liq bajarilgandan so‘ng (yuk xati) asosida 5 bank ish kunida qolgan 70% to‘lov “Ta’minotchi”ning maxsus hisob raqamiga o‘tkazib beriladi.

3.3 “Buyurtmachi” tomonidan mazkur shartnomaning 3.1. bandi talablari bajarilmagan taqdirda “Ta’minotchi” shartnomada ko‘rsatilgan mahsulotlarni bermaslikga xaqli bo‘ladi.

3.4 “Ta’minotchi” tomonidan tovar moddiy boyliklarni o‘z vaqtida yetkazib bermasa, buning natijasida ikkinchi tomon jiddiy zarar ko‘rsa bir tomonlama shartnomani bekor qilishga asos bo‘ladi.

**4. Tovar moddiy boylikni yetkazib berish tartibi.**

4.1. Tovar moddiy boylikni belgilangan vaqtda “Buyurtmachi” ning Denov tuman S.Otaboyiv SIU Tolqishloq MFQ da joylashgan Tibbiyot Birlashmasi omborxonasiga olib kelib beradi.

4.2. Tovar moddiy boyliklarni yetkazib berish tartibi ushbu shartnomaning 3.1. bandiga asosan pul mablag‘lari “Ta’minotchi” ning hisob raqamiga o‘tkazilgandan so‘ng 3 bank ish kunida bajarilishi shart.

4.3.O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2020 yil 28 maydagi 24-son O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-sonli BHMS) “Tovar-moddiy zaxiralar”ni tasdiqlash haqida buyrug‘iga1-ilova bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-sonli BHMS) “Tovar-moddiy zaxiralar”ning 93-bandiga muvofiq “Tashkilot tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda yetkazib beruvchilardan tovar-moddiy zaxiralar olish uchun ishonchli shaxsga yozma ishonchnoma beradi. Ishonchli shaxs unga ishonchnoma bo‘yicha berilgan vakolatlar doirasida harakat qiladi”

4.4. Ishonchnoma noto‘g‘ri rasmiylashtirilgan holda “Ta’minotchi” tovar moddiy boyliklarni chiqarishdan bosh tortishga xaqli.

4.5 “Buyurtmachi” tovar moddiy boyliklarni “Ta’minotchi”ning omboridan olib ketish xarajatlarini o‘z zimmasiga oladi.

**5. Tomonlarning majburiyatlari.**

5.1“Ta’minotchi” majburiyatlari:

- Oldindan shartnomaning 3,1 bandini amalga oshirilgandan keyin, “Buyurtmachi” ga shartnomada ko‘rsatilgan tovar moddiy boylikni yetkazib beradi;
- “Buyurtmachi” ga tovar moddiy boylikning servis kitobchasini, pasportini, hisob ma’lumotnoma va yaroqlilik sertifikatidan nusxa taqdim qilish;

- tovar moddiy boylikni yetkazib kelinganligi xaqida “Buyurtmachi”ni xabardor kiladi.

5.2 “Buyurtmachi” majburiyatlari:

- Tovar moddiy boylikni qabul qilib olguncha “Ta’minotchi”ning omborxonasida obdon ko‘zdan kechiradi va uning sifatiga, butligiga, yaroqliligiga e’tibor beradi;

- Agar tovar moddiy boylik talabga javob bermasa, ya’ni sifatsiz bo‘lib, is’temolga yaroqsiz bo‘lsa “Buyurtmachi” qabul qilmaslikga va o‘rniga boshqasini almashtirib berishini talab qilishga xaqli bo‘ladi.

- Tovar moddiy boylik “Ta’minotchi” omborxonasidan “Buyurtmachi” tomonidan qabul qilingandan keyin javobgarlik to‘liq “Buyurtmachi” tomoniga o‘tadi.

**6. Tomonlarning javobgarligi.**

6.1.Tomonlar shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmagan takdirda O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va 29.08.1998-yildagi 670-1-sonli “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan 25-32 bandlari bo‘yicha javobgar bo‘ladilar.

6.2.To‘lovlar muddati kechiktirilganda, “Buyurtmachi” kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,4 miqdorida, lekin shartnomaning umumiy summasini 50% foizdan oshmagan miqdorda penya tulaydi.

6.3.Tovar moddiy boylikni yetkazib berishni kechiktirganligi uchun “Ta’minotchi” kechiktirilgan har bir kun uchun 0,5 % miqdorida, lekin shartnomaning umumiy summasini 50% foizdan oshmagan miqdorda penya tulaydi.

6.4.“Buyurtmachi” tomonidan tovar moddiy boylik ishlatilishi jarayonida sodir etilgan qonun buzilish hollari uchun “Ta’minotchi” majburiyat olmaydi.

6.5.Shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

6.6.Shartnomani bajarishdan (shartnomada ko‘rsatilgan holatlardan tashkari) bir taraflama bosh tortishga yoki bir taraflama o‘zgartirish kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

**7. Nizolarni xal etish tartibi.**

7.1. Mazkur shartnoma bo‘yicha tomonlar shartlarni bajarmagan taqdirda, javobgar tomon keltirilgan moddiy va ma’naviy zararlarni qoplaydi.

7.2.Tomonlar o‘rtasida shartnomani tuzishda, bajarilishida, o‘zgartirish va bekor qilishda yetkazilgan zararlarni qoplashda yuzaga keladigan nizolar ogoxlantirish va da’vo xatlari tartibida, agarda murosaga kelinmaganda Denov tumanlararo iqtisodiy sudi orqali hal qilinadi.

**8. Qo‘shimchalar.**

8. Korrupsyaga qarsshi kurashish va boshqa shartlar

8.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o’z majburiyatlarini bajarayotganda O’zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonin hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jiuhatdan, pora berishni taklif qilmaydi va’da bermaydi,

**9. Fors-major.**

9.1.Agar shartnoma tuzilgandan so‘ng ikki tomon o‘z majburiyatlarini g‘ayri tabiiy holatlar, suv toshqini, yong‘in, yer qimirlash va boshqa tabiiy ofatlar sababli bajarilmasa, xech qaysi tomon to‘la yoki qisman bajarilmagan majburiyatlar uchun javobgar xisoblanmaydilar.

**10. Shartnomaning amal qilish muddati.**

10.1.Mazkur shartnoma G‘aznachilik bo‘linmasida ruyxatdan o‘tgan kundan boshlab kuchga kiradi va 31 dekabr 2022yilgacha amalda bo‘ladi.

10.2.Mazkur shartnoma 2 nusxada tuzilgan, ikki tomon imzolagan kundan boshlab, teng kuchga ega bo‘lib, bank hisob-kitoblarini amalga oshirishga asos bo‘ladi.

**11. Tomonlarning yuridik manzili.**

| **Ta’minotchi** | **Buyurtmachi** |
|---|---|
| "Farm Dunyo" МЧЖ | NOMI:Denov tuman tibbiyot birlashmasi |
| Manzil: Surhandaryo v.Denov t Sh.Rashidov | MANZIL: Denov shaxar Mustaqillik |
| X/R-20208000405447345001 | INN-201362066 MFO-00014 |
| INN-308870828.MFO-01063 | x/r 100022860222107073101054002 |
| Transbank Denov fil | |
| Kahbar A.Choriev | Раҳбар Имзо МУ I.G‘.Yusupov. |

"FARM-DUNYO" O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SURXONDARYO VILOYATI DENOV TUMANI MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI

:трон рақамли имзо орқали тасдиқланган, ҳужжат коди: B03145346646

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

1.**Loyianing turi:** Xo‘jalik shartnomasi.

2.**Loyihaning nomi.**

Loyiha "Farm Dunyo" MCHJ rahbari Choriev Akmal Abdimajidovich“Ta’minotchi” hamda “Buyurtmachi” **Denov tumani Tibbiyot Birlashmasi** Bosh shifokori Yusupov I. Lar o’rtasida “Buyurtmachi” extiyoji uchun lozim bo‘lgan Tibbiy buyum mahsulotlari (jami 11 xil) yetkazib beradi, “Buyurtmachi” esa tovar-moddiy boyliklarni qabul qilib, mazkur shartnoma shartlari asosida to‘lovlarni amalga oshiradi.

Shartnoma umumiy qiymati 105 255 000 sumlik jami 18 090 ( Un sakkiz ming tuqson) dona Dori darmon mahsulotlarini tashkil qiladi.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:**

Denov tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o’tkazish uchun 2022 yil 04 fevralda kiritilgan.

## X U L O S A

Shartnoma shakli, mazmun mohiyati va yuridik texnika talablariga rioya etilishi jixatidan, O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi 670-1-sonli “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan shartnoma predmeti, ko‘rsatiladigan xizmatning miqdori, shartnomaning bajarilish muddatlarini, hisob-kitob qilish tartibini, taraflarning majburiyatlarini, shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda taraflarning javobgarligini, nizolarni hal etish tartibini hamda taraflarning rekvizitlarini, shartnoma tuzilgan sana va joyni, shuningdek bunday turdagi shartnomalar uchun qonunchilikda belgilangan yoki taraflardan birining arizasiga ko‘ra o‘zaro kelishuvga erishish lozim bo‘lgan boshqa muhim shartlarni nazarda tutgan bo‘lib, shartnomani shakllantirishda yuridik texnika talablariga rioya etilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Denov tuman Yuridik xizmat ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsulti:** **A.B.Xatamov**
04/02/2022

4424760

Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

# GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"FARM-DUNYO" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"FARM-DUNYO" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

18.09.2021 1039589 ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 308870828

Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi: Surxondaryo viloyati, Denov tumani, Denov, Sh.Rashidov Ko`chasi , 1-uy 186-do`kon

Guvohnoma: Surxondaryo viloyati, Denov tumani, DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):